



## AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 11 | pp. 355-359 | ISSN: 2181-1865  
Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

### MILLIY IQTISODIYOTNI RAQOBATBARDOSHЛИGINI OSHIRISHDA KORXONALARDA INNOVATSION LOYIHALARNI SAMARALI BOSHQARISH



**Ismatov Raxmatilla Oltinovich**

Namangan muhandislik-qurilish instituti, i.f.n., dots

**Annotatsiya:** Maqolada mamlakatimizda iqtisodiyotini raqobatbardoshligini oshirish, innovatsion jarayonlarni rivojlantirish, korxonalar innovatsion faoliyatini, salohiyatni oshirish, ularni samarali boshqarish, texnologik innovatsiyalarni joriy etish bilan bog'liq jarayonlar tadqiq etilgan.

**Kalit so'zlar:** milliy iqtisodiyot, innovatsiya, innovatsion faoliyat, texnoparklar, innovatsion markazlar, yoshlar texnoparki, innovatsion tadbirkorlik, innovatsion loyiha, fan sig'imi yuqori mahsulotlar, texnologik innovatsiyalar.

**Аннотация:** В статье изучаются процессы, связанные с повышением конкурентоспособности экономики в нашей стране, развитием инновационных процессов, повышением инновационной активности предприятий, повышением их потенциала, их эффективным управлением, внедрением технологических инноваций.

**Ключевые слова:** национальная экономика, инновации, инновационная деятельность, технопарки, инновационные центры, молодежный технопарк, инновационное предпринимательство, инновационный проект, продукция с высоким научным потенциалом, технологические инновации.

**Abstract:** In the article, the processes related to increasing the competitiveness of the economy in our country, developing innovative processes, increasing the innovative activities of enterprises, increasing their potential, their effective management, and introducing technological innovations are studied.

**Key words:** national economy, innovation, innovative activity, technology parks, innovation centers, youth technology park, innovative entrepreneurship, innovative project, products with high scientific capacity, technological innovations.

#### **Kirish.**

Mamlakatimiz mustaqilligining ilk kunlaridan boshlab respublikamiz iqtisodiyotida institutsional va tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish ustuvor vazifaga aylandi. Milliy iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish jarayonida hal qiluvchi omillardan biri bo'lib, bu yo'nالishda nafaqat respublika iqtisodiyotini xomashyoga yo'nalgaligini o'zgartirish, balki aholining zaruriy iste'mol tovarlari bilan ta'minlovchi raqobatbardosh korxonalarini rivojlantirishni xam talab etardi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini tarkiban yangilash jarayonida, fan sig'imkorligi yuqori bo'lgan ustuvor sohalarni rivojlantirish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish ustuvor vazifalardan biriga aylanib bormoqda. Bu esa, aholining tez o'sib, o'zgarib borayotgan ehtiyojolarini to'laroq qondirish, so'nggi kashfiyot ishlanmalari va texnologiyalarini ishlab chiqarishga tatbiq etish, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish va tovarlarning hayotiylik davrini barqaror o'sib borishini ta'minlovchi zamonaviy usullardan keng ko'lamma foydalanishni taqozo etmoqda.

Hozirgi kunda va yaqin kelajakda innovatsion rivojlanish sohasida hal etilishi zarur bo'lgan quyidagi asosiy muammolar saqlanib qolmoqda: "... ilmiy-tadqiqot va innovatsion loyihalarni davlat-xususiy sheriklikda moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish va hajmini oshirish, xalqaro moliya tashkilotlari va jamg'armalari mablag'larini jalb qilish hamda tadbirkorlikka zarur ko'nikmalarni texnoparklar, innovatsion markazlar va yoshlar texnoparklari orqali kichik va innovatsion tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashni talab etmoqda" [1].

### **Adabiyotlar tahlili.**

XXI asrning boshiga kelib milliy iqtisodiyotni raqobatbardoshligini oshirishda mamlakatlar o'zining innovatsion ishlab chiqarish kontseptsiyasiga o'tishi zarur degan xulosaga kelindi. Natijada iqtisodchi olimlarning innovatsiyalar bilan bog'liq turli qarash va yondashuvlari rivojana boshladi. Bu borada amerikalik iqtisodchi olim J.Brayt "Innovatsiya jarayoni ilm, texnika, tadbirkorlik va boshqaruvni o'zida birlashtiruvchi, innovatsiyalarini tijoratlashuviga qaratilgan faoliyatdir" [2] – deb ta'kidladi. Uning fikricha, innovatsiya jarayoni g'oyani paydo bo'lishidan boshlab tijorat asosida hayotga tatbiq etish jarayonigacha bo'lgan bosqichni o'z ichiga oladi.

Innovatsion jarayonlar bilan bog'liq muammolarni birinchilardan bo'lib o'rgangan olimlardan biri Y.Shumpeter innovatsion o'zgarishlarni korxonalar nuqtai nazaridan ishlab chiqarishni yangi texnika va texnologik jarayonlar asosida ta'minlash evaziga bozorlarga chiqish; yangi xususiyatlarga ega bo'lgan mahsulot turlarini yaratish; yangi xomashyolardan foydalanish; ishlab chiqarishni tashkil etishni takomillashtirish va yangi innovatsion tovarlar bilan ta'minlash; yangi iste'mol bozorlarini ochish yo'nalishlariga ajratgan holda tadqiq etish maqsadga muvofiq ekanligini ta'kidlaydi [3].

Innovatsiyalarini rivojlantirishni tadbirkorlik nuqtai nazaridan talqin etgan P.Druker esa, tadbirkorlarning innovatsion qarashlari, fikrlashlari bir-biridan farqlanadi, ya'ni innovatsiya jarayonlarini rivojlanishi tadbirkorlikning ixtisoslashgan yo'nalishlariga bog'liqdir deb ta'kidlaydi [4].

Rossiyalik iqtisodchi olimlar M. Ionov, A. Kulagin, V. Loginovlar o'zlarining tadqiqotlarida innovatsiyalar – korxonalarining iqtisodiy samaradorligini ta'minlash zarurati va vositasi ekanligi ilmiy jihatdan asoslaganlar [5].

O'zbekistonda innovatsiya faoliyatini rivojlantirish va boshqaruv tizimini o'rganish bo'yicha A.M. Qodirov [6], SH.N. Zaynutdinov [7], F.Ergashev [8], N. M. Rasulov [9] va boshqa olimlar ilmiy tadqiqot olib borganlar.

### **Asosiy qism.**

Innovatsion loyihani amalga oshirish to'g'risida qaror qabul qilishda resurslar manbalari va yakuniy innovatsiyalar iste'molchilarini tahlil qilingan bo'lishi zarur, ya'ni korxonaning tashqi muhit tahlili o'tkazilishi kerak. Mazkur omillar bir vaqtning o'zida

innovatsion loyihani amalga oshirish va qaror qabul qilish jarayonida hisobga olinishi kerak. Aynan shuning uchun moliyaviy va resurs ta'minotidagi mavjud cheklovlarini hisobga olgan holda, innovatsion faoliyatni amalga oshirish doirasida ulardan foydalanishni optimallashtirish natijasida innovatsion rivojlanishning maqsad va vazifalari asosida korxonaning innovatsion faoliyatini kompleks boshqarishni amalga oshirish muhimdir.

Tadqiqotlarimizning ko'rsatishicha iqtisodiyotni raqobatbardoshligini oshirishda korxonalarda innovatsion faoliyatini boshqarish sxemasini amalga oshirishda quyidagi vositalarni kiritish muhim hisoblanadi:

innovatsion g'oyalarni joriy etish uchun istiqbolli loyihalarni tanlash vositasi;

innovatsion faoliyatning tashqi va ichki omillarini hisobga olgan holda innovatsion loyihalarni baholash vositalari;

fan sig'imi yuqori tarmoqlari korxonalarida innovatsion loyihalarni amalga oshirishni optimallashtirish vositalari.

Korxonaning innovatsion faoliyatini boshqarishning quyida keltirilgan vositalarini hisobga olgan holda uni realizatsiya qilish bosqichlari quyidagidan iborat:

Birinchi bosqichda korxonaning rivojlanishiga davlat, tarmoq va korxona rahbariyati qarashlarining rasmiyligidan iborat korxonaning innovatsion faoliyatini boshqarish mezonlarini shakllantirish zarur. Bu qarashlar korxonaning innovatsion faoliyati samaradorligi ko'rsatkichlari, korxona faoliyatining alohida ustuvor yo'naliishlari, realizatsiya qilinayotgan loyihalarning yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan risk darajasi, loyihalarning innovatsionligi va iqtisodiy samaradorlikning maqsadli ko'rsatkichlarida ifodalanadi.

Ikkinci bosqichda korxonaning innovatsion infratuzilmasining holati va uning innovatsion faoliyati ko'rsatkichlari hamda ushbu sohada mavjud statistik axborotlar tahlilini ko'rib chiqish kerak. Bu axborot turli yo'naliishlarda innovatsion faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun korxona imkoniyatga ega ekanligini ifodalaydi.

Uchinchi bosqichda innovatsion rivojlanishning mavjud jahon trendi va hamda innovatsion mahsulotlar, xizmatlar va texnologiyalarga davlat va tarmoq ehtiyojlari tahlilini o'tkazish zarur. Innovatsion faoliyat samaradorligining ajralmas qismi bo'lib, uning natijalariga talab hisoblanadi. Innovatsion faoliyatning kutilayotgan natijalariga talabni istiqbollashtirishga harakat qilish uchun korxona faoliyatining yo'naliishlariga innovatsion qarorlarda davlat buyurtmalari, tarmoq va bozor talabini aniqlash zarur. Biroq innovatsion loyihalarni amalga oshirish yetarlicha ko'proq vaqt ni qamrab olishi mumkin. Buning asosiy sababi davlat buyurtmasi, tarmoq va bozordagi talabga qarab innovatsion qarorlar o'zgarishi mumkin.

To'rtinchi bosqichda korxonaning innovatsion rivojlanishini istiqbolli yo'naliishlarini aniqlash zarur. Korxonaning innovatsion loyihalarini realizatsiya qilishning ustuvor yo'naliishlarini aniqlashda quyidagi omillarni e'tiborga olish kerak:

korxonaning ichki resurslarining miqdor va sifat ko'rsatkichlari;

innovatsion faoliyat sohasida mavjud tendentsiyalar;

innovatsion faoliyatni amalga oshirish doirasida korxonaning manfaatlari;

innovatsion faoliyatni amalga oshirish doirasida tarmoq manfaatlari;

innovatsion faoliyatni amalga oshirish doirasida davlat manfaatlari;

innovatsion faoliyatni moliyalashtirishni amalga oshirishda investor manfaatlari.

Har bir aniq holatda yuqorida keltirilgan omilarning muhimligi mulk shakli va iqtisodiy faoliyatni olib borishi, innovatsion faoliyatni moliyalashtirish manbalari va korxona rahbariyatining munosabatiga bog'liqdir.

Oltinchi bosqichda innovatsion faoliyatga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillarni hisobga olgan holda fan sig'imi yuqori tarmoq korxonalarining innovatsion loyihalarini realizatsiya qilishni baholash lozim. Innovatsion loyihalarining realizatsiyasi loyihaning yakuniy muvaffaqiyatiga ham ijobjiy, ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan barcha tashqi omillarning faol ta'siri ostida amalga oshiriladi.

Ettinchi bosqichda innovatsion loyihalar portfellarining shakllanishi va tanlanishi o'tkaziladi. Mavjud texnologik rivojlanish trendlari, tomonlarning innovatsion faoliyatda ishtirok etish ustunliklari, loyihalarining iqtisodiy va innovatsion tavsifi, loyihalar ro'yxatida keltirilganlarning belgilangan mezonlarga to'liq mos keladiganlarini tanlash kabilarni hisobga olish zarur.

Sakkizinch bosqichda sanoatning fan sig'imi yuqori tarmoq korxonalarida innovatsion loyihalarni optimallashtirishni hisobga olgan holda tanlangan innovatsion loyihalar realizatsiyasini boshlash kerak. Yuqorida keltirilgan korxonalar innovatsion faoliyatini boshqarish sxemasini realizatsiyasi hozirgi vaqtda respublikamiz sanoat tarmog'ida dolzarb hisoblangan innovatsion rivojlanish muammolarini hal qilishi mumkin. Bulariga quyidagilar kiradi:

innovatsion loyihalarni realizatsiya qilinishi darajasini oshirish;

innovatsion loyihalarni amalga oshirishda resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish;

innovatsion loyihalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish;

innovatsion faoliyat natijasida xalqaro, davlat va tarmoq ehtiyojlari va buyurtmalari doirasida korxonalarining innovatsion faoliyatini faollashtirish.

Innovatsion faoliyatni boshqarishning keltirilgan funksional tizimi korxonaning samarali faoliyat yuritish maqsadlariga muvofiqlikda uning tashkiliy tuzilmalari o'rtaida aniq taqsimlangan bo'lishi kerak.

### **Xulosa va takliflar.**

Korxonalarda innovatsion loyihalarni joriy etish uchun uning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligini baholash lozim. Shu sababli texnologik innovatsiyalarni joriy etish asosida sanoat ishlab chiqarishida yuqori samaradorlikka erishish uchun texnik choratadbirlarning qaysi biri foydali ekanligini aniqlash zarur.

Korxonalarda texnologik innovatsiyalarni joriy etish tadbirlari quyidagilardan iborat:

- mashina va mexanizmlarning yangi hamda takomillashgan turlari va konstruktsiyalarini joriy etish;
- xom ashyo, materiallar, yoqilg'i va energiyaning yangi turlarini yaratish;
- texnologik innovatsiyalarning yangi va takomillashgan turlarini ishlab chiqarishga joriy etish;
- texnologik jarayonlarni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish darajasini oshirish;
- korxona faoliyatini boshqarishning innovatsion shakllarini joriy etish;

- ixtirochilik va novatorlik takliflarini ishlab chiqish.

Korxonalarda ishlab chiqarishni rivojlantirish, mahsulot hajmini oshirish, uning sifatini yaxshilash, ishlab chiqarish samaradorligiga erishish uchun fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish zarur. Bu faoliyat ma'lum iqtisodiy chora-tadbirlarni ishlab chiqish asosida amalga oshiriladi. Chora-tadbirlar albatta samarali bo'lishi kerak. Uni hisobga olmasdan, baholamasdan innovatsion loyihalarni ishlab chiqarishga joriy etib bo'lmaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 6 iyuldagи 2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-165-sonli Farmoni.
2. Очковская М.С. Инновации как качественный фактор экономического роста. Автореф. диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – М.: Дело, 2006. – С.4.
3. Морозова Л. Э., Бортник О. А., Кравчук И. С. Экспертные методы и технологии комплексной оценки экономического и инновационного потенциала предприятий. Учебное пособие.: - М.: Альпина бизнес бакс, 2009. - С.9.
4. Друкер П. Задачи менеджмента в XXI веке.: Пер. с англ.: – М.: Издательский дом «Вильямс», 2004. – 272 с.
5. Афоничкин А.И. Основы менеджмента. Учебное пособие.: – М.: Кнорус, 2011. –С.272.
6. Кадыров А.М. Формирование национальной инновационной системы в условиях углубления экономических реформ. Актуальные проблемы развития инновационной деятельности. Сборник научных трудов международной конференции. –Т.: 2008. С.19-21.
7. Зайнутдинов Ш.Н. Инновационный менеджмент. –Т.: Академия, 2006. –С.267.
8. Эргашев Ф., Рахимова Д., Сагдуллаев А., Парпиев О. Инновацион менежмент. Дарслик. –Т.: Академия, 2005. –Б. 90.
9. Расулов Н.М., Зайнуддинов Ш. Н. Инновацион менежмент. Дарслик.-Т.: "Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи" 2020й. 540 б.

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

